



## KASSANDRA TAMG`ASI ASARINGING ASL MOHIYATI VA UNI HAYOTIMIZGA TATBIQI

Muxiddinova Muhlisa Shamsiddin qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

shamsiddinabdullayev1969@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7315137>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> November 2022

Accepted: 05<sup>th</sup> November 2022

Online: 09<sup>th</sup> November 2022

### KEY WORDS

*Kassandra tamg`asi, psixologik omil, Filofey, tub ma`no.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Chigiz Aytmatovning "Kassandra tamg`asi" asarining asl mohiyati ochib berildi. Bu maqolaning yozlishidan maqsad – asarni o`qib chiqqan kishilarning ko`plari asarning sirli, psixologik, yashirin ma`nolariga e`tibor bermasdan, shunchaki ahmoqona yozilgan asar deyyilishining oldini olish. Ushbu maqolada imkon boricha asarning mohiyati yoritildi.*

Biz bilamizki, shunday narsalar yoki shunday so`zlar borki ularning asl mohiyati ko`ringanidek bo`lmaydi, ularning asl mohiyatini tushunish uchun biroz mushohada qilishga zarurat tug`iladi. Chingiz Aytmatovning ham ushbu "Kassandra tamg`asi" asari ham tub mohiyatga ega, falsafiy asar hisoblanadi. Chunki unda ifodalanayotgan asl ma`no-mazmuni chuqur mushoha qilishni talab etadi. K. Boost shunday deydi: "bir gapdan boshqasiga tirlilgan iplar shu qadar ko`p va shunday pishiq to`rni hosil qiladiki, gaplarning chatishishi ularning yagona to`r sifatida o`rib to`qilganligi haqida gapirish mumkin, chunki har bir alohida gap boshqalari bilan chambarchas bog`liq". Shu sababli asar yozilishidan maqsad bitta. Yozuvchi asariga o`zini, xalqini qiynayotgan masala yoki muammolarni singdiradi. Bu to`g`risida Vinokur 1891-yil olmon tilshunosi Fon Der Gabelensining fikrlarini o`z asarida keltirib o`tadi: "inson tili faqat bog`lanayotgan tushunchalar va ularning mantiqiy munosabatlarinigina emas, balki so`zlovchining o`z fikriga munosabatini ham ifodalashni istaydi; men faqat nimanidir aytishnigina emas, balki o`zimni ham ifodalashni xohlayman va shu tarzda mantiqiy omilga uni har jihatdan to`yintirgan holda psixologik omil qo`shiladi". Shunday ekan asarni tahlil qilayotganda har bir jihatiga alohida e`tibor bermoq lozim. Keling asar to`g`risida Kassandra tamg`asi asarining dastlabki boblarida asar unchalik ham qiziq emasdek tuyiladi, barchasi fantastikadek, uydirma yozilgan ekan degan hayolga ham borasiz, qanaqadir fazoviy rohibning ahmoqona nazariyalarini va bizning aqidamizga to`g`ri kelmaydigan gaplari insonni biroz jaxliga ham tegadi. Keling aynan shu dastlabki qismida yozilgan voqealarga biroz to`xtalib o`tamiz. Asarning boshida Filofeyning ya`ni samoviy rohibning nazriyalari e`tiborga molikdir. U Rim Papasiga bir maktub yuboradi va o`sha xat butun dunyoga murojaati edi. Uning fikricha, hali onasining vujudida bo`lgan homila dastlabki oylarida o`zining kelajakdagi hayoti qanday kechishini ichki his bilan sezishi va o`zining taqdiriga munosabatini bildira olish qobilyati mavjudligini kashf qiladi, ya`ni embrion qismati kelajak hayotda yomon kechadigan bo`lsa, homila o`zining yorug` dunyoga kelishiga qarshilik qilar ekan. Va bunda

o'zining tug'ilishga qarshilik nishonasi namoyon etishini ya'ni tug'ilishni xohlamaydigan bolaga homilador ayolning peshonasida kichkinagina rangli dog' paydo bo'ladi va ushbu dog'ni Filofey Cassandra tamg'asi deb ataydi, ko'ngilsiz signallar berib turadigan homilani esa kassandra-embrion deb ataydi. Bu haqida tug'ilmagan bola dastlabki haftalaridagina taqdiri azalga o'z munosabatini bildirishi va falokatdan xabar berish qobiliyatiga ega bo'lib, shundan so'ng bu qobiliyat so'nib, pusht asta-sekin taqdirga tan berishini aytib o'tadi. Uning kashfiyotiga ko'ra, o'sha dog'lar ya'ni Cassandra tamg'asi kichkina husnbuzardek bo'lib ko'p kishining hatto nazariga ham tushmasligi sababli u bunday dog'ning sezilarliroq, aniqroq namoyon bo'lishi uchun nurlantirish seanslari o'tkazadi ya'ni Yerga osmondan turib zondaj-nurlar jo'natadi. Bu nurlar tufayli kichkinagina rangli dog' fazodan yo'naltirilgan nurlar ta'sirida milt-milt etib o'chib yonib hammaga ko'rina boshlaydigan holatda bo'lishini aytib o'tadi. Zondaj-nurlar atmosferada ko'rinmaydi va kishi tanasi uchun butunlay zararsiz. Bunday nurlarni men osmondan deyarli hamma qit'alarga, butun sayyoraga yo'naltiraman. Bunday nurlantirishdan maqsad — Cassandra embrionlarini yoppasiga aniqlashdir deydi. Kashfiyotiga ko'ra, Cassandra embrionlari erk o'zidada bo'lganida tug'ilmaslikni afzal ko'rish. Shu sababli signallar jo'natayotgani, sababi kelajakda o'zini va qarindosh-urug'larini achchiq taqdir, sho'rpehonalik kutayotganini va tug'ilmasdan, hech kimni ortiqcha g'am-tashvishga qo'ymasdan daf bo'lishni Afzal ko'rish, vidolashishga kech emasligi va u bunga tayyor ekanligini o'z izlanishlari natijasida kashf qilganligini aytib o'tadi. Balki Gitler va Stalin ham tug'ilishidan avval shunaqa nishon bergandir, kelajakda shunaqa barchaga kulfat keltiradigan inson bo'lishini istamasdan signal bergandir, agar avvalroq shun Cassandra belgisi aniqlanganida edi balki o'sha urushlarning oldi olingan bo'larmidi deydi. Uning fikrini yorqinroq ifodalasak hali tug'ilmasdanoq yorug' dunyo yuzini ko'rmadan o'lishni afzal ko'rishiga embrionlarni nima sabab bolayotganini tushuntirishga harakat qiladi. Albatta bu Filofeyning fikrlaridan har qanday inson yomon o'ylarga borishi aniq. Chunki qanday qilib inson o'z farzandini nobud qilishi mumkin? Qanday qilib hali dunyo yuzini ko'rmagan bir yurakni yashash huquqidan mahrum qilish mumkin? Axir dinimizda ham boshqa dinlarda ham bu harom etilgan-ku. Imom Buxoriy va imom Muslim rivoyat qilishgan. "Homila tirik bo'lsa va uning qolishi sababli onaning hayoti xavf ostida qolsa ham uni abort qilish joiz emasdir. Chunki homila sababli onaning o'lishi mavhumdir. Shunga ko'ra mavhum narsa sababli odamzotni o'ldirish joiz bo'lmaydi" degan so'zlar borku yoxud huquqiy demokratik davlatlarimizda bu ish to'g'ri emasku! Axir abort – bu qotilik-ku! degan fikrlar insonlarni Filofeyga nisbatan nafrat tuyg'usi alanga oldirishi aniq. Asarning boshlanmasida insonni shu kabi fikrlar chulg'aydi. Albatta bu fikrlar insonni gangitib qo'yishi tabiiy. Lekin asarning o'rtalariga kelib bu Filofeyning fikrlari insonni chuqurroq o'ylantirishga majbur qiladi. Cassandra tamg'asi haqidagi nazariyaning asl mohiyatini ochib berishga yoshi oltmishlarga kirib qolgan keksa olim furtolog Robert Bork maydonga chiqadi. U bu nazariyani har tomonlama mushohada qilib ko'rdi va asl mohiyatni angladi. Uning fikriga ko'ra aslida Filofeyning nazariyalari aslida Cassandra tamg'asi tushgan, hali dunyo yuzini ko'rmagan homilalarni abort qilish, ulardan qutilish emasligini o'z mushohadasida nomoyon etadi. Fazoviy rohib kashfiyotini yaratishdan asl maqsad insonlarni e'tiborlilikka, qilayotgan ishlarimizga biroz nazar tashlashimizga da'vat etadi. Insonlar qay darajaga kelib qolishdi. Insonlar dunyoni qay holatga tushirishgani va nima uchun embrionlar bu dunyoga kelishni istamaslik darajasiga yetganliklarini

furtolog izohlashga harakat qiladi. Pok ilohiy mavjudot sanalmish insonlarning qanday qilib shu ahvolga tushib qoldik? Odam bolasi homila bosqichidayoq oxir zamondan xabar bera boshlasa?! Bu aslida nimani anglatishini furtolog bayon etadi. Insonlarda mehr-shavqat, diyonat kabi insoniy fazilatlar yo`qolib borayotgani va natijada ochko`zlik, o`z manfaati yo`lida hamma narsani qurbon qilish va hatto har qanday razil ishlarga qo`l urish kabi illatlar avj olgani sababli turli urushlar, g`alayonlar, qo`zg`olonlar, jinoyatlar, hokimlarning shafqatsizligi, mafkuralarning zulumkorligi — bularning barchasi go`zal dunyoyimizni qanday abdor holatga keltirib qo`yayotganimizdan daololat bermayaptimikin?! Asarda furtolog kabi keng mushohadali obraz bo`lmish Entoni Yunger ham yosh bo`lishiga qaramay Filofeyning nazariyasini to`g`ri tushunib yetadi. U furtolog bilan suhbatlashar ekan haqiqatdan ham go`zal dunyoyimizni o`zimiz razilliklarga to`ldirib o`zimiz oxirzamoni yaqinlashtirayotganimiz, insonlar insonlarga vijdoni qiynalmay nohaqliklar qilishlari, yomonlik sog`inishlari haqida fikr yuritadi. U Qorabog`da armanlar bilan ozarbayjonlar o`rtasida ko`p yillardan beri olib borilayotgan jinoyatkorona urushda dala komandirlari o`lganlarning jasadlari bilan savdo qilishari, jangda o`ldirilgan kishining ota-onalari va qarindosh-urug`lari uning jasadini dafn qilish uchun sotib olishari shu yo`l bilan katta pul ishlashlari v aba`zan o`z askarini orqasidan o`zi otib tashlab shu yo`l bilan aqcha topishari haqida, Turkiyaning bir shahrida adiblarning Salmon Rushdini qo`llab-quvvatlashga bag`ishlangan konferentsiyasi bo`lib o`tayotgan mehmonxona yondirib yuborilishi. O`shanda konferentsiya qatnashchilarigina emas, balki mehmonxonada vaqtincha yashab turgan insonlar tiriklay yonayotganida yordam berish o`rniga telereportyorlar tasvirga tushirishganlari, shuning yonginasidagi maydonda mamnunlikdan o`zida yo`q xursand bir gala fundamentalist yoshlar ana shular yong`in chiqarganlarga madh aytib, shodlikdan sakrab, raqsga tushganliklari, shu dahshatli manzaradan go`yo shahvoniy lazzat olganliklari yoki Germaniyada turk oilalarining tiriklayin yondirib yuborilish sabablarini o`zimizdan so`rashimiz kerak emasmikin degan savol va masalalarni asl javobi insonlar borgan sari yovuzlashib ketayotganimiz va go`zal hayotimizni shu qadar murakkab va qiyinchiliklarga limmo-lim bo`lishiga insonlarning o`zlari sabab bo`layotganini tushuntirishga harakat qiladi. Bunday dunyo hali tug`ilmagan bola hatto bunday yovuzlikka to`la hayotda yashagandan ko`ra yashamagan afzal deydigan darajada ekanligini keltirib o`tmoqda.

Endi bu asrning asl mohiyatiga keladigan bo`lsak, agar biz shu yo`sinda harakat qilsak ya`ni yovuz ishlarimizni shu tarzda davom ettiraversak, albatta oxirgi zamoni o`zimizga toboro yaqinlashtirgan bo`lamiz. Bu asarda shunday vaziyat tadbiiq etilyaptiki, insonlar hech chuqurroq mulohaza yuritmsliklari natijasida bir insonning, ulug` olimning vaxshiylarcha o`ldirilishida ishtirokchi bo`lishadi. Insonlar Borkning fikrlarini hatto tinglamadilar ham. Bir manfaatparast insonning bo`htonlari, o`z siyosiy martabasi ko`tarilishi tufayli bir haqiqatparvar insonning o`limiga sababchi bo`ldi. Eng achinarlisi shuki, bu insonni shunday vaxshiylarcha o`ldirilganidan keyin ham 83.7 % odamlarda qilgan ishidan pushaymonlik hissi mavjud emasligi va hatto 76% odmlar o`sha yerda bo`lganimizda o`zimiz Borkni o`ldirardik deyishlari insoniylik fazilatlaridan yiroqlashib ketishganidan isbot edi. Bu naqadar razillik! Axir inson biror yomon ish qilsa, kimningdir hayotiga zomin bo`lsa-yu hech pushaymonlik hissini tuymasa bu qandayin jaholat?! Bu asarda ma`nu shunchalik ustalik bilan yashirilganki, uni uzoq mushohada qilmasak tub mohiyatiga yetolmaymiz. Yozuvchi butun asar davomida insonlar razillikka botganliklarini turli

talqin va misollarda berib o'tgan. Masalan: 1) Qizil maydonda bir talaba qizni yonayotganda va uni yonishiga sababch bo'lgan insonlar holati yoki 2) Kreml o'q va qurollar ishlab chiqarilishi to'xtatilmaligi kerakligi, 3) "sovuq urushlar texnikaviy taqraqqiyot" zamiridagi so'zlar, 4) Amerika prezidentligiga o'z nomzodini qo'ygan Oliver Ordok o'z manfaatini o'ylab necha yillik do'sti Borkka tuxmat qilishi, butun ommani unga qarshi qilib qo'yishi 5) Robert Borkni o'ldirayotganlarida insonlar ko'nglida zarracha xato qilayotganlik hissi o'tmaganligi insonlarda odamiylik hissi yo'qolayotganidan darak emasmi. Bir insonning ko'ngliga ozor berish qanchalar og'irligi narida tursin, uning azoblanib vafot etayotganida shunchaki tomoshabindek turishlari, barchaga ofat va kulfat keltirgan urishni batamom yo'q bo'lib ketishini istash o'rniga qurol-yarog' ishlab chiqarib insoniyatning vafotiga sabab bo'lishlari haqida o'ylamasliklari, o'z manfaati yo'lida do'stligini ham unutgan vijdotsizlar va ayniqsa ko'rib, gapirib, o'z hislarini namoyon etoladigan mavjudotni qiynab o'ldirish bu – qanday mudhish manzara! Inson insonni o'ldirsa-ya, bu insonlarning oxirzamonga yaqinlashganliklariga bir nishona emasmi?! Vaziyat shu darajaga yetganki embrionlar hatto tug'ilishdan voz kechishmoqda. Muallif mening nazdimda, tub mohiyatni shunda ajoyib sharchaga joylashtirganki, uni har kim ham anglab mag'zini chaqolmaydi. O'sha sharchaning ustki qismi bolalaringiz tug'ilishni istamayaptilar ular kelajakda tug'ilib insonlarning boshiga balolar solib, qiyinchilikka duchor etiladigan yovuz kishilar bo'lib tug'ilganidan ko'ra tug'ilmaganlari ma'qul emasmi degan niqob tursa asl mag'zida esa ummuman bolalarni abort qilish haqida fikr bormaydi. Unda insonlar o'zimizni o'zimiz tuzataylik, yovuzlikni qo'yaylik, vaziyat shu darajaga yetib kelmasin, farzandlarimiz bundan aziyat chakishmasin, farzandlarimiz dunyoni faqat go'zal holatlarda ko'rishsin, agarda biz shunday bir-birimizga ziyon yetkazish payida bo'lsak, bir-birimizni o'ldirishda davom etaversak, dunyoni yovuzliklarga to'ldirib, kalta fikrlasak albatta oxirgi zamon yaqinlashadi, hali tug'ilmagan bolalar bunday razilliklarga to'la dunyoga kelishdan ko'ra tug'ilmalikni Afzal ko'rishlari tayin degan asosiy mohiyat mavjud. Bundan tashqari bu asarda hozirgi hayotimizdagi yana bir illat ko'rsatilib o'tilgan. Bu insonlar yakdil bo'lmay, o'ylamasdan ish qilishlaridir. Asardagi jamiyat shunday tasvirlanganki, kimdir o'zгани o'z manfaatini yo'lida qurbon qiladigan va o'rta tashalغان fikrni o'zaro mulohaza qilmasdan shunchaki qaror qabul qilishadigan holda aks ettirilgan. Atigi bir, ikki, boringki o'n kishi ham butun bir jamiyatni fikrini o'zgartir olmaydi. Aytishadi-ku, agar davlatni yuksaltirmoqchi, boy qilmoqchi bo'lsangiz avvalo jamiyatni, xalqni ongini o'stirish, ularning dunyoqarashlarini kengaytirish kerak degan xulosa ham aynan shunga mos. Xalq yakdil bo'lib birlashmasa uni har qanday kimsa o'z yo'rig'iga sola oladi. Butun bir xalq fikrini bir necha kishi o'zgartir olmaydi. Har bir inson avvalo o'zi barcha ishlarni tahlil qilib ko'rmog'i lozimdir.

Asardan xulosa qiladigan bo'lsak, rostan ham bu asarni o'qib tushungan inson hozirgi hayotimizdagi bo'lib o'tayotgan voqealarni bir tahlil qilib ko'radi. Asarda olomon shunday tasvirlanganki, Oliver Ordokning so'zlariga hech bir sababsiz ishonib, boshqa bir insonning hayotiga shunchaki nuqta qo'yishadi. Bir o'rta tashalغان fikrni faqatgina bir tomondan tadbiiq etmasdan uni har tomonlama tahlil qilish lozim emasmi? Axir bir insonning taqdiriga shunchalik befarq qarash insoniylikka to'g'ri keladimi?! Bir qaror qabul qilishdan oldin avval o'sha insondan nega bunday qilayotgani, agar javobi bo'lsa tinglab keyin xulosa chiqarish odimiylik xislatlaridan emasmi? Lekin xalq nima qildi? Xalq ongli mavjudotlar kabi yo'l tutish o'rniga vaxshiy hayvonlardek yo'l tutdi va

bu qilgan ishlaridan pushaymon bo`lish o`rniga faxrlandilar ham. Nahotki insoniyat o`z-o`ziga shunchalar dushman bo`lsa? Insonlar Olloh yaratgan boshqa mavjudotlari ichidagi eng aqli raso, eng fikri teran, ongli mavjudot emasmi? Nega endi o`zimizni o`zimiz yo`q qilishimiz kerak? Bu qilmishlarimiz zalolatga yetaklamayaptimikan? Insonlar shu darajada "vahshiy" bo`lib ketishganki, hatto ba`zan bunday insondan hayvon Afzal deymiz. Masalan hayvon och bo`lsa qarshisidan chiqqan narsani hatto inson bo`lsa ham burdalab, yeb tashlashi mumkin. Ammo insonlar insonni o`ldirishning eng jirkanch, eng qiynoqli usullari bilan o`ldirishgan va o`ldirishmoqda. Tarixda ham hozirda ham insonlarning "vahshiylik" lariga guvoh bo`lmoqdamiz. Inson zoti qanday yaralagan edi? Avval boshidan shunchalar yovuzmidi? Do`sti do`stini sotsa, xiyonat qilsa, insonlar faqat manfaati deya yashasa, mehr-shavqatni unutsa, birov birovga qayg`urmasa, kimningdir ko`nglini og`ritib qo`yganida toki undan kechirim so`ramagunicha vijdon azobidan tunda uyqusi kunda hayoli joyida bo`lmay vijdoni qiynalmasa, ko`zingga qarab turib qilt etmay yolg`on so`zlasa, ota-ona farzandiga, farzandi esa ota-onasiga mehrlil bo`lmasa, boylilik va manfaat muhabbatdan ustun bo`lsa, insonlarda shirinso`zlik o`rniga bir-birlari ustidan kulishsa, tahqirlanishsa, zinokashlar qilayotgan ishlaridan uyalish o`rniga bezbetlarcha oshkoralik bilan o`shanday jirkanch ishlarini qilishsa bu dunyoning g`zalliklarini butkul yo`qqa chiqarib bo`lib uni jaholatxonaga aylantirgan bo`lmaymizmi? Oxirgi zamoni o`zimiz o`zimizga tobaro yaqinlashtirmayapmizmi? Har bittamiz bu savollarni o`zimizga berishimiz kerak, qilinayotgan va qilayotgan qilmishlarimizdan xulosa chiqarishimiz kerak! Chunki boshimizga kelayotgan barcha qiyinchilik va turli balo-yu ofatlarga, davosi topilmayotgan va og`ir asoratlarga olib keladigan o`g`ir kasalliklarning hammasi bizning hozirgi razillashtirib yuborayotgan dunyoyimizga xulosa chiqarishimiz uchun yuborilyapti. Chingiz Aytmatov ham o`z asari orqali bizga shuni yetkazmoqchi bo`lgan. U o`z fikrlarini rohib tomonidan aytadi va fikrini ifodalash esa furtolog Robert Bork obrazi orqali namoyon etiladi. Asar oxiriga yetganingizda Borkning fikrlarini chuqurroq anglab ko`ra boshlaysiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Chingiz Aytmatov "Kassandra tamg'asi" asari
2. Винокур Г. О. О языке художественной литературы. М.:, 1991, с-35
3. Москalskaya O. I Grammatika teksta. M: Visshaya shkola, 1981, s-5, 6